

## O'ZBEK XONANDALIK SAN'ATIDA OVOZ TALQINIDAGI SINOATLAR

**M. O. Raxmatova**

BuxDu San'atshunoslik fakulteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasи o'qituvchisi

**K. R. Raxmatov**

Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbek xonandalik san'ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. O'tmishdan oddiy-oddiy ko'rinishlardan murakkab shakllargacha namunalar takomillashib, rivojlanib xalq orasida ommalashgan. O'zbek xonandaligi turli janr va shakllarga ega bo'lsa-da, mumtoz xonandalik san'ati alohida ahamiyatga ega ekanligi barchaga ayondir. Mumtoz xonandalik san'ati tarkibidan ayni paytda maqom va maqom yo'llariga xos ashulalar, dostonlar, katta ashulayu suvoralar joy olgan. Uлarni o'ziga xos, shakliga mos talqin etish chiroyli ovoz, iste'dod, saboq hamda ijro o'quvi lozimdir. O'tmishdan ustoz san'atkorlar keksa hofizlarning an'analarini o'zlashtirib, ustoz sabog'i ila kuylab kelgan. Qolaversa, mumtoz xonandalik san'atida idroklash lozim bo'lган uch-to'rt amal to'laqonli, nazariy va amaliy o'zlashtirishni taqozo etgan. Bular, an'ana va meros, nafas ishlatish uslubi, she'riyat va talaffus hamda munosabat amallaridir. Bu omillar xonandalik amaliyotida charxlanib o'zlashtiriladigan holatlar. Ayni paytda an'anaviy xonandalik kasbi O'zbekiston Respublikasi O'rta va Oliy ta'lim tizimlarida o'qitilib kelinmoqda.

**Kalit so'zlar:** Nafas, tarannum, mumtoz, mutatsiya, ovoz, xonanda, talaffuz, unli va undosh.

Musiqa ijrochilik san'ati azal-azaldan o'zining sirli dunyosi bilan tinglovchilarni lol qoldirib kelgan. Bu hayrat ohanglarning turli holatlarga mos kelishida, tushkunliklarga yechim topishida, hastaliklarni davolashida, dunyoning ajoyibot olamini idroklashida hamda doimo tetiklik bilan xush kayfiyatda yurishlarida o'zini namoyon etib kelgan. Shu bois bo'lsa kerak hazrat Navoiy o'zining «Mahbub-ul qulub» asarlarida «Ruh xush ovozdan ozuqa Ko'ngil quvvat oladi» deb bejiz aytmaganlar.

Musiqaning sehri ohangda. Ohangning siru sinoatlari esa cholg'uda. Cholg'uning mo'jizasi, albatta ijrochidadir. Bir cholg'uni ikki ijrochi hech qachon o'zidek bir xil tarannum ettira olmaydi. Zero, tarannum kishining qalbi bilan tutashadi va o'z dardini ohanglarga ulaydi. Musiqa dunyosida insonning ovozi eng mukammal cholg'u ekanligi hech kimga sir emas. Qadim zamonlardan ovoz talqinidagi xonishlar turli yo'nalish hamda uslublar bilan boyib kelgan.

Ovoz Alloh tomonidan deyarli barchaga ato etiladigan ulug' ne'matlardan biridir. Zero, ular orasida tanlanganlari sirli-jozibali ovoz sohibidirlar. Ya'ni siru sinoatli, tarovatli, dardli hamda mungli ovozli xonandalardir. Odatda, inson ovozi o'zgaruvchandir. Shu bois, uni asrash yo'llarini bilish yaxshi natijalar



beradi. Asrash uchun esa, ma'lum tabiiy qoidalarga rioya qilish lozim bo'ladi. Ovoz tarbiyalash mezonlarini bosqichma-bosqich o'tash lozim bo'lgan jarayondir. Bu jarayon bolalik chog'idan toki ovoz mushaklarining mo'tadil holatga kelgunga qadar o'tash lozim bo'lgan vaqt bilan chegaralanadi.

An'anaviy xonandalik kasbining nozik tomonlaridan biri bu – nafas bilan bog'liq mezonlar ekanligi xonandalar uchun sir emas. Mohir xonandalik darajasiga erishish uchun bu jarayon juda muhim. Aslida nafas, xonandaning zabardastligini anglatuvchi qurolidir.

Shu bois, amaliyotda o'pka, ko'krak qafas, qorin bo'shliqlari bilan bog'liq nafas ishlatish uslublari shunga mos keladigan namoyandalar haqida fikrlar yuritilib kelinadi. Bu jarayonga ilmiy yondoshib isboti bilan idroklab mulohaza qilish uchun amaliy ijroviy ko'nikma bo'lishi juda muhimdir.

Mumtoz musiqa shinavandalarining boshqalaridan tubdan farqlab turadigan narsa, bu so'zga o'ta talabchan va katta e'tibor berishlaridir. Chunonchi turdosh harflarni o'zgarishi ham matn ma'nosiga putur yetkazadi. Amaliyotda esa burro talaffuzli xonandalar doimo qadrlanganlar. Shuning uchun ustoz-shogird saboq uslubi eng qulay va asosli o'qitish uslubidir. Unda ustozlarning og'zaki uslubda kelgan an'anasi mujassam topgan bo'lib, zamonaviy jarayon davr taqozo etgan taraqqiyot mezoniga amal qiladi. Og'zaki an'ana bu asos, lekin yozma asos xotiraning pand berishidan asraydi. Shu bois tarbiyaning tizimli shakllanishi doimo o'z natijalariga ega bo'lib kelgan. Kundalik mashq o'z o'rniда kasbiyot talabidir. Aniq va burro talaffuz xonandaning ijrodagi o'tkirlik vositasi demakdir. Mumtoz adabiyot namunalarining ohanglardiagi talqinida noto'g'ri talaffuz, ma'no va mohiyatga putur yetkazishi muqarrardir. Ba'zi bolalar so'zlarni talaffuz etishda unli tovushlarni burun orqali sadolantiradi. Bolalarning ko'pchiligidagi tovushni tomog'ini qisib chiqarish hollari ham mavjud.

Bolalarda, ayniqsa, mutatsiya davrida organizmdagi anatomik o'zgarishlar oqibatida ovozda sezilarli o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi. Ba'zi bolalarning ovozi yo'g'onlashib boradi, ba'zilarida esa hastalik paydo bo'ladi. Bunday holatlarda o'quvchi ovozi bilan ishlash jarayonida uning ovozidagi premar hududga alohida e'tibor berish kerak.

Mutatsiya davrini o'tayotgan bolada uchtadan beshtagacha nisbatan tiniq sadolanuvchi pardalar bo'ladi. Mana shu pardalar bola ovozida premar hudud hisoblanadi. Ovozni tarbiyalashda qolgan pardalardagi tiniqlik darajasini ana shu premar hududdagi pardalarga yaqinlashtirishga intilishimiz kerak.

Mutatsiya davrining o'ziga xos tomoni shundaki, bu davr qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan oson kechadi. Ya'ni, mutatsiyada ko'p hollarda qizlarning ovozida nisbatan o'zgarish kamroq bo'ladi, hatto yoshligidagi ovozi mutatsiya davri o'tgach ham deyarli o'zgarishsiz qolishi mumkin. Demak, qiz bolaning ovozi bilan mutatsiya davrida ishlash nisbatan ancha osondir. Ammo, ovozga nisbatan talab va mas'uliyat o'g'il bolaga ham, qiz bolaga ham har qanday holatda bir xilda bo'lishi shart deb o'ylaymiz.

Har qanday ovozning o'ziga xos yaxshi shakllangan, ayni vaqtida hali shakllanmagan taraflari bo'lib, ular shubhasiz ma'lum parda va ohanglarda o'z ifodasini topadi. Ovoz bilan ishlayotgan o'qituvchi asosan yaxshi shakllangan, nisbatan tiniq ovoz registriga alohida e'tibor berishi, ovozdagi qolgan pardalar tiniqligini ana shu shakllangan pardalar darajasiga yaqinlashtirishga intilishi maqsadga muvofiqdir. Talaba ovoziga xos yana bir xususiyat, ta'bir joiz bo'lsa, murakkablik shundaki, bu ovozlarda bizning diyorimizda mavjud xilma-xil an'anaviy ijro yo'nalishlarining ta'siriga duch kelamiz. Ovoz bilan ishlash jarayonida bu faktor juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, talaba ovozidagi bu xususiyatni imkon qadar boyitib, ayni vaqtida o'zi tarbiyalangan ijro yo'nalishini ham rivojlantirib borish ovoz tarbiyasining eng zarur omillaridan biridir. Xonanda ovozini bu yo'sinda tarbiyalash chiniqtirib borish uning ma'naviy va axloqiy barkamol bo'lishini ham ta'minlaydi.



Har bir ustozning ulug‘ maqsadi o‘zi tarbiyalayotgan o‘quvchining salohiyati, ijroviy mahorati yordamida mumtoz an’anaviy ijro maktablarini tiklash, rivojlantirish va yangi ijroviy yo‘nalishlarni kashf etishdir. Bu oliv maqsadlarni amalga oshirishda o‘quvchiga an’anaviy xonandalikning eng mukammal ilg‘or ijroviy namunalarini eshittirish, eshittirganda ham uning shakllanib kelayotgan tafakkuriga kuchli ta’sir etadigan darajada eshittirish, har bir darsda, har kun, har soatda ana shunday ijrolarni tinglashda talabada ehtiyoj paydo qila oladigan darajada eshittirish lozim. Ijroni tinglash jarayonida, uni tinglab bo‘lgach asar mohiyati va ma’nosini oddiy suhbat tarzida ochib berish, ya’ni, ko‘proq asar haqida talabaning fikrini tinglab, uni to‘ldirib borish darsning sifatini oshiradi. O‘quvchida eshittirilayotgan asar ijrosiga nisbatan qiziqishning kuchayib borishiga olib keladi.

An’anaviy ijrochiligidan guloji - maqomlar va ular asosida yaratilgan xalq ashulalari, bastakorlar asarlarini O‘rtalik maxsus va Oliy o‘quv dargohlarida ta’lim olayotgan yosh avlodga o‘rgatish, aniqrog‘i, ularning tafakkuri, ongiga singdirish kundan-kunga dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, an’anaviy xonandalik fanini o‘qitish zamirida mumtoz ashulalarning talaba ruhiga ta’siri, ularda paydo qiladigan fikriy o‘zgarishlar va etik-estetik rivojlanishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Musiqa tinglashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi talabalarda an’anaviy xonandalikka bo‘lgan qiziqishning kuchayishini ta’minlaydi. Talab ijroga va ijro etayotgan xonandaga nisbatan qalban va ruhan intiladi. Bu intilish o‘z navbatida bo‘lg‘usi xonanda yuragida an’anaviy xonandalikka va uning betakror vakillariga nisbatan muhabbat paydo qiladi. Muhabbat esa talabada o‘z sohasiga nisbatan e’tiqodni shakllantira boshlaydi. Zero, zamondoshlari va marhum ustoz ijrochilar san’atiga befarq bo‘lmagan xonandagina ijrochiligidan an’analarini tiklashga qodir.

O‘ziga xos uslub yaratishda ovozdagi betakrorlik xususiyatini saqlab qolish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ma’lumki, odamlar vujudida mayjud biror-bir a’zo yoki biror modda bir-birini aynan takrorlamaydi. Demak, dunyodagi barcha odamlarning ko‘rinishi, fe’l atvori, aql idroki, dunyoqarashi, tuzilishi bir-biriga aynan yoki umuman o‘xshamaydi. Inson bir-birini takrorlamaydigan xilqatdir. Odamlarning ovozi ham bir-biriga umuman yoki deyarli o‘xshamaydi. Aytish mumkinki, yer yuzida qancha odam bo‘lsa shuncha ovoz ham bor.

An’anaviy xonandalikning ulug‘ vakillari Ota Jalol Nazirov, Usto Shodi Azizov, Hojixon Boltaev, Madrahim Sheroyev (Yoqubov), Mamadbaba Sattorov, Rasulqori Mamadaliev, Murodjon Ahmedovlar tomonidan yaratilgan yoki targ‘ib qilingan ijroviy yo‘nalishlarning umrboqiy bo‘lishida ularning ovozidagi o‘ziga xoslik, betakrorlikning ahamiyati juda katta. Demak, biz ham talabalar ovozidagi faqat o‘sha ovozgagina singdirilgan xususiyatlarga alohida e’tibor berishimiz lozim.

Talaba o‘zining ovoz imkoniyatlarini yaxshi bilmaganligi tufayli, ilk bor kuylashga jazm etarkan kimgadir taqlid etadi, albatta. Tabiiyki, dars jarayonida biz talabani taqliddan olib qochishga harakat qilamiz. Taqlid bu qanday holat? Albatta, taqlid ovozni biror-bir mashhur xonandaga o‘xshatish demakdir. Bu jarayonda talabaning og‘iz ochishida, lab harakatlarida, ko‘rinishida, undagi asl holatga zid tomonlarini uchratamiz. Buning oqibatida ovozning yuqori registlarini(ovozning ma’lum qismidagi pardalarning umumiyligi soni uning registri deyiladi. Ovozda quyi, o‘rtalik yuqori registrlar mavjud) ishlatish paytida o‘quvchi qizaradi, bo‘yin tomirlari bo‘rtib chiqadi; past pardalarda kuylaganda ovoz kuchsizlanadi, ba’zan kekirdagini shishirish va tomog‘ini qisish oqibatida notabiyy va hatto yoqimsiz sadolar paydo bo‘ladi. E’tirof etish kerakki, talaba o‘zidagi bu kamchiliklarni sezmaydi. O‘zi bilgan, o‘rgangan asarlarni zavq bilan kuylaydi. Ijrosidan o‘zida mammunlik sezadi.

Biz talabaga dastlabki darslarda taqlidning og‘ir oqibatlari haqida emas, balki talaba ovozidagi yaxshi fazilatlar haqida ko‘proq gapirishimiz lozim. Shu yo‘l bilan talabani taqliddan voz kechish jarayoniga



asta-sekinlik bilan olib kirish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning hatto o‘z o‘qituvchilariga muntazam ravishda taqlid qilishlari ham yaxshi emas.

Ovozning tabiiy holini saqlovchi, uni taqlidning zararli oqibatlaridan qutqazuvchi yana bir muhim omil talabaga unli va undosh tovushlarni an'anaviy xonandalik qoidalari asosida talaffuz ishni o‘rgatishdir. Bu jarayonda lab, pastki jag‘, til, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, tilchak harakatlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish, ovozning mo‘tadil sadolanishini ta‘minlaydi. Ovoz shakllantiruvchi barcha omillarning faoliyatini talabaga har bir dasrda uqtirib borish kerak. Chunki rezonatordan to‘g‘ri foydalanish (ovozi chiqarishda ishlatiluvchi barcha a’zolar - rezonatordir. Rezonator lotincha rezon — sadolanuvchi ma’nosida) ovozni yoyilib ketmasligiga imkon beradi. Nafas harakatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va undan unumli foydalanish, ayniqsa, ovoz gigienasiga muntazam amal qilish talaba ovozining bekami ko‘st shakllanishni ta‘minlaydi. An’anaviy xonandalikda ovoz tanlayotganda yana bir jihatga e’tibor berish kerak. Ba’zi talabalarning ovozlarida tiniqlikdan ko‘ra xastalik ko‘proq sezildi. Bu xastalikda katta bir mung yashiringanday bo‘ladi, go‘yo. Bunday ovozli talabalarni ham an’anaviy xonandalikka qabul qilsa bo‘laveradi.

Odatda mashhur xonandalar maqom va maqom yo‘lidagi ashulalarni ijro etishda she’riy matndagi har bir so‘zni qalam tili, aruz qoidalariiga yaqin tarzda talaffuz etishga intilgan. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish xonandadan o‘zbek tilidan tashqari fors va arab tillaridan xabardor bo‘lishini talab etadi.

O‘zbek an’anaviy xonandaligining rivojida yuqorida zikr etganimizdek hofizalarimizning hissasi ham ulkandir. Ular ovozidagi o‘ziga xoslik asnosida, yosh qizlar ovozini tarbiyalash ayni muddao. Biz bo‘lgusi xonanda qizlarimizning ovozida va xonishlarida Kommuna Ismoilovadagi mung, Nazira Yusupovadagi shiddat, Saodat Qobulovadagi raxonlik, Berta Davidovadagi noyob qochirimlardan yaralgan goh mahzun, goh shodon kayfiyat baxsh etuvchi, tinglovchi ruhiyatiga hukmronlik qila oladigan dard atalmish ne’matning qayta shakllanishi va yangilanishini istardik.

## **Adabiyotlar**

1. Rakhmatova M. O., Saidahmadova S. J. Q. SOME ISSUES OF SINGING TEACHING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 782-786.
2. Рахматова М. О., Шодиева Г. А. Музыкальное образование по методике уорда (Ward) //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 52-54.
3. Рахматова М. О., Холикова М. Б. МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 63-65.
4. Norova S. U. THE ROLE OF DUTOR'S INSTRUMENT IN PEOPLE'S PERFORMANCE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 74-78.
5. Мадримов Б. (2021). Воздействие узбекского национального певческого искусства и жанра эстрады на сознание современной молодежи. Наука, техника и образование. № 2-1 (77), С. 55-58.
6. Raxmatova M. O., qizi Aslonova N. I. Today's Makom Traditions Spiritual Significance //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 1. – С. 340-342.
7. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 893-898.



8. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 496-501.
9. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
10. Нуруллаев Ф. Г. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 589-594.
11. Ражабов А. Ш. ИЗМЕРЕНИЕ СВОЙСТВ МНОГОМЕРНОГО РАЗНООБРАЗИЯ АККОРДОВ В МУЗЫЦИРОВАНИЕ, МУЗЫКА В «ВАРИАБЕЛЬНЫХ» И «МНОГОЗНАЧНЫХ ФОРМАХ» //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 613-617.
12. Ibragim Fayzullaevich Kayumov. Xalq qo'shiqlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy malakasini o'stirish usullari. Scientific progress 2021/03Б.635-640.
13. Hasanov H. R. Ansambl ijrochiligi faoliyatining tarixi va taraqqiyot bosqichlari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 650-655.
14. Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 23. – №. 23.
15. Миршаев У. О'zbek xalq cholg'ularining shakllanish tarixi va sharq musiqashunos olimlarining cholg'u ijrochiligi san'atiga oid ilmiy merosi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
16. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – T. 2795. – №. 546X. – C. 1.
17. Karimov O. J. I. Tanbur sozining paydo bo 'lishi va milliy cholg 'u ijrochiligidagi o 'rni //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 767-771.
18. Ruziev D. Y. The Emergence of New Forms of Musical Ensembles in Uzbekistan //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 343-346.
19. Ибодов У. Р. Инструментальная музыка как орудие психологического влияния на человека.« //Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии XXI века. – 2020. – С. 244-248.
20. Камолов Ш. Х. СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ КАК ГАРАНТ ЗАЩИТЫ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАНИНА //Наука и инновация. – 2015. – №. 2. – С. 89-92.
21. Ахтамов И. И. Ў. Мақом анъанавий касбий мусиқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 648-653.
22. Болтаев Б. Х. МЕТОДЫ ВОКАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ //Проблемы науки. – 2021. – №. 4 (63). – С. 98-100.
23. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – C. 191-194.
24. Ражабов Т. И. Тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука,



- образование и культура. – 2020. – №. 3 (47). – С. 61-63.
25. Madrimov B., Rajabov T., Nurillaev F. Teaching Bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 4. – С. 6049-6056.
26. Ражабов Т. И., Ибодов У. Р. Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 55-58.
27. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83). – С. 34-37.
28. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне" тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
29. Ражабов Д. З., Ражабов Т. И. Формирование и развитие узбекской народной лирики //Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. – 2018. – С. 207-212.
30. Rajabov T. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 72-79.
31. Раджабов Т.И., Орипов Н.О. Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методологическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.
32. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
33. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
34. Раджабов Т.И., Рутамова М.Ф. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 404-408.
35. Ражабов Т. И. Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
36. Ражабов Т. И. ХАҚ ҚҮШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛАНТИРИШ ОМИЛИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.
37. Раджабов Т.И., Раджабов Д.И. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ



- ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 331-335.
38. Rajabov T. I. THE ROLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS IN YOUTH EDUCATION IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 884-889.
39. Ибодович Р.Т. Эстетическое воспитание школьников через национальные ценности (на примере бухарского детского фольклора) //Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук. – 2020. – Т. 8. – С. 237-240.
40. Тұхтасин Р. И. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚҰШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 64-71.

